O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 2-oktabr | 517-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-sentabrdagi 573-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2024-yil 21-fevraldagi kungi PF-37-son Farmoniga muvofiq sog‘liqni saqlash sohasida ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarini raqamlashtirish ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jismoniy shaxslarni davlat tibbiyot muassasalariga hisobga qo‘yish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 573-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jismoniy shaxslarni davlat tibbiyot muassasalariga hisobga qo‘yish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 573-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

jismoniy shaxslarni davlat tibbiyot muassasalariga hisobga qo‘yish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti (keyingi o‘rinlarda - Ma’muriy reglament) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

jismoniy shaxslarni davlat tibbiyot muassasalariga hisobga qo‘yish bo‘yicha davlat xizmatidan foydalanish uchun O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — YIDXP) orqali murojaat qilish tartibi;

jismoniy shaxslarni davlat tibbiyot muassasalariga hisobga qo‘yish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatish muddatlari;

jismoniy shaxs doimiy yashash va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tganda, uni yangi manzildagi davlat tibbiyot muassasasiga kompozit shaklda hisobga qo‘yilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Farg‘ona viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (B.Primqulov), Raqamli texnologiyalar vazirligi Farg‘ona viloyati sho‘basi (Y.Gafurov) bilan birgalikda 2025-yil 1-martga qadar:

tasdiqlangan ma’muriy reglamentga muvofiq davlat xizmatini ko‘rsatish YIDXP orqali joriy etilishini ta’minlash;

YIDXP orqali davlat xizmati ko‘rsatilishining har bir bosqichida murojaatlar ko‘rib chiqilishini kuzatib borish tartibini joriy etish choralarini ko‘rsin.

3. Farg‘ona viloyati adliya boshqarmasi (A.Bo‘riyev)ga:

davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan davlat xizmati ko‘rsatilishi ustidan, shu jumladan, YIDXP orqali doimiy nazorat hamda monitoring o‘rnatsin;

Ma’muriy reglament talablarini buzganlik uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslariga nisbatan belgilangan tartibda ma’muriy jazolarni qo‘llasin.

4. Farg‘ona viloyati hokimining ayrim qarorlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-dekabrdagi 1049-son qaroriga Farg‘ona viloyati hokimning tegishli qarori qabul qilinmaganligi inobatga olinsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Farg‘ona viloyati hokimining o‘rinbosari Sh.Rahimov hamda Farg‘ona viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (B.Primqulov) zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 2-oktabrdagi
517-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 2-oktabrdagi
517-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Farg’ona viloyati hokiminining ayrim qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Farg’na viloyati hokiming 2018 yil 29 oktabrdagi “O’zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-oktabrdagi 845-sonli qarori to’g’risida”gi 544-son qarorning 2-band bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini doimiy propiska qilish va turgan joyi bo‘yicha hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

a) quyidagi mazmundagi 12^1-band bilan to‘ldirilsin:

“12^1. Jismoniy shaxslar doimiy yashash va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tish jarayonida ixtiyoriga ko‘ra ularning ma’lumotlari yangi yashash joyidagi davlat tibbiyot muassasasiga hisobga olinishi uchun “Manzil” avtomatlashtirilgan axborot tizimidan “Elektron sog‘liqni saqlash” axborot tizimiga yuboriladi”;

b) 4-ilovaning 5-bosqichi “Tadbirlar” ustuni quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Jismoniy shaxsning ixtiyoriga ko‘ra davlat tibbiyot muassasasiga fuqaro doimiy ro‘yxatga olinganligi haqida elektron tizim orqali ma’lumot yuboradi”;

v) 5-ilovaning 3-bosqichi “Tadbirlar” ustuni quyidagi mazmundagi 4-kichik band bilan to‘ldirilsin:

“4. Jismoniy shaxsning ixtiyoriga ko‘ra davlat tibbiyot muassasasiga fuqaro doimiy ro‘yxatga olinganligi haqida elektron tizim orqali ma’lumot yuboradi”;

g) 9-ilovaning 3-bosqichi “Tadbirlar” ustuni quyidagi mazmundagi 3-kichik band bilan to‘ldirilsin:

“3. Jismoniy shaxsning ixtiyoriga ko‘ra davlat tibbiyot muassasasiga fuqaro doimiy ro‘yxatga olinganligi haqida elektron tizim orqali ma’lumot yuboradi”;

d) 10-ilovaning 4-bosqichi “Tadbirlar” ustuni quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Jismoniy shaxsning ixtiyoriga ko‘ra davlat tibbiyot muassasasiga fuqaro doimiy ro‘yxatga olinganligi haqida elektron tizim orqali ma’lumot yuboradi”.